



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ QO‘MITASI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI
VAZIRLIGINING
QARORI

“Soliq bilimlari – yosh avlodga” mavzusidagi ijodiy ishlar ko‘rik-tanlovini o‘tkazish haqida

O‘zib kelayotgan yosh avlod ongida soliqlar haqidagi bilimlarni yanada mukammal shakllantirish, umumta‘lim maktablari o‘quvchilarining soliq tizimi bo‘yicha huquqiy tafakkurini rivojlantirish, mamlakatimiz soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqidagi bilim va tasavvurlarni boyitish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 12-avgustdagi 24-1305-sonli topshirig‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi **qaror qiladi:**

1. 2026-yil 1–28-fevral kunlari umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida **“Soliq bilimlari – yosh avlodga”** mavzusidagi ijodiy ishlar ko‘rik-tanlovi o‘tkazilsin.

2. Quyidagilar:

“Soliq bilimlari – yosh avlodga” mavzusidagi ijodiy ishlar ko‘rik-tanlovini o‘tkazish nizomi 1-ilovaga muvofiq;

Tuman (shahar) bosqichi g‘oliblarini aniqlash uchun tuzilgan Hay‘at a‘zolari namunaviy tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi g‘oliblarini aniqlash uchun tuzilgan Hay‘at a‘zolari namunaviy tarkibi 3-ilovaga muvofiq;

“Soliq bilimlari – yosh avlodga” mavzusidagi ijodiy ishlar ko‘rik-tanlovining yakuniy bosqichi g‘oliblarini aniqlash uchun tuzilgan Hay‘at a‘zolari namunaviy tarkibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar soliq boshqarmalari Maktabgacha va maktab ta‘limi, Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmalari bilan hamkorlikda **“Soliq bilimlari – yosh avlodga”** mavzusidagi ijodiy ishlar ko‘rik-tanlovining viloyat va tuman (shahar) bosqichlarini o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini bir hafta muddatda ishlab chiqsin.

4. Har yili ko'rik-tanlovning maktab bosqichi **20-yanvar–1-fevral**, tuman(shahar) bosqichi **1–10-fevral**, viloyat bosqichi **10–20-fevral**, respublika – yakuniy bosqichi **20–28-fevral** kunlari oralig'ida o'tkazilsin.

5. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari M.Mirzayev, Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari F.Boqiyev va Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari A.Muminov zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Soliq qo'mitasi Raisi

Toshkent sh.,
2026-yil "16" yanvar,
2026-01 -son



F.Pulatov

**Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri**

Toshkent sh.,
2026-yil "16" yanvar,
4 g/g -son



E.Karimova

Yoshlar ishlari agentligi direktori

Toshkent sh.,
2026-yil "16" yanvar,
01-07/01 -son



A.Sa'dullayev

Soliq qo‘mitasi,
Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi,
Yoshlar ishlari agentligining
2026-yil 16 -yanvardagi
2026-01/4 q/q / 01-04/01 -son qaroriga
1-ILOVA

**Maktab o‘quvchilarining “Soliq bilimlari – yosh avlodga”
mavzusidagi ijodiy ko‘rik-tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq maktab o‘quvchilari o‘rtasida **“Soliq bilimlari – yosh avlodga”** mavzusidagi ijodiy ko‘rik-tanlovini (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy atamalar qo‘llaniladi:

tashkilotchi – O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi;

hamkorlar – Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi;

ishtirokchi – tanlovda ishtirok etish uchun ijodiy ish taqdim etgan umumta‘lim maktabi o‘quvchisi;

tashkiliy qo‘mita – tanlov tashkilotchisi hamda hamkor idoralarning mas‘ul shaxslaridan iborat guruh;

tanlov hay‘ati – tashkiliy qo‘mita tomonidan tuzilgan tanlovning ijodiy ishlarini baholovchi va g‘oliblarni aniqlovchi ekspertlar guruhi;

ijodiy ish – tanlov shartlariga muvofiq tayyorlangan rasm, insho, videorolik yoki reels.

2. Tanlov har yili Soliq qo‘mitasi tomonidan Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda o‘tkaziladi.

Tanlovning maqsadi o‘quvchilarda soliqlarning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, soliqlarni to‘lash har bir fuqaroning konstitutsiyaviy burchi ekanligi to‘g‘risida ongli munosabatini shakllantirishdan iborat.

3. Tanlovning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilar o‘rtasida soliq madaniyatini shakllantirish;
- yoshlarda soliq turlari va yig‘ilgan soliqlar jamiyat ehtiyojlari uchun sarflanishi to‘g‘risidagi bilimlarni bolalikdan kengaytirib borish;
- yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash.

4. Tanlov to‘rt bosqichda: maktab, tuman (shahar), viloyat va respublika bosqichlarida o‘tkaziladi.

5. Tanlovni tashkil etish bo‘yicha ishchi organ Soliq qo‘mitasining Jamoatchilik bilan aloqalar boshqarmasi hisoblanadi.

Ishchi organi tanlovni o‘tkazish muddatlari, ishtirokchilarning ijodiy ishlarini qabul qilish, har bir bosqichda g‘oliblarni aniqlash bo‘yicha tanlov Xay‘atini shakllantirish va ijodiy ishlarni ko‘rib chiqish, g‘oliblarni taqdirlash masalalarini tashkil qiladi.

6. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda mablag‘ ajratiladi.

7. Tanlovning ishchi organi manzili: A.Qodiriy ko‘chasi, 13-A uy, 100011, Soliq qo‘mitasining ma‘muriy binosi.

2-bob. Tanlovni o‘tkazish tartibi

8. Tanlov umumta‘lim maktablarining 5-7-sinf, 8-9-sinf va 10-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida quyidagi nominatsiyalar bo‘yicha o‘tkaziladi:

- “Soliqlar mavzusining suratlardagi tasviri” – **eng yaxshi rasm** (5-7-sinflar uchun)
- “Soliq: kecha, bugun, ertaga” mavzusidagi **eng yaxshi insho** (8-9-sinflar uchun);

“Soliqlar nimaga to‘lanadi va nimalarga sarflanadi?” mavzusidagi **eng yaxshi videorolik yoki reels** (umumta’lim maktablarining 10–11-sinf o‘quvchilari uchun).

9. Tanlov to‘rt bosqichda tashkil etiladi:

Birinchi bosqich – maktab;

Ikkinchi bosqich – tuman (shahar);

Uchinchi bosqich – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar;

To‘rtinchi bosqich – respublika.

10. Tanlovning 1-bosqichini tashkil etish uchun maktab direktorlari tomonidan shakllantirilgan, 2–4-bosqichlarini o‘tkazish uchun soliq xizmati organlari rahbarlari tomonidan Maktabgacha va maktab ta’limi tizimi, Yoshlar ishlari agentligi xodimlaridan iborat tashkiliy qo‘mita tuziladi.

Tashkiliy qo‘mita:

tanlov ishtirokchilarining ijodiy ishlarini yig‘adi;

tanlov o‘tkaziladigan joy va vaqtini belgilaydi, uning yuqori saviyada o‘tkazilishini ta’minlaydi;

hamkor tashkilotlar vakillaridan iborat tanlov hay’atini shakllantiradi;

g‘olib o‘quvchilarning ijodiy ishlarini viloyat bosqichiga taqdim etadi.

11. **Birinchi bosqich** – har yili **1-fevralga qadar** umumta’lim maktablarida o‘tkaziladi. Har bir nominatsiya bo‘yicha eng yaxshi deb topilgan 3 nafar ishtirokchining ijodiy ishlari saralab olinib, har yili 1-fevraldan kechiktirmagan holda tanlovning tuman bosqichiga taqdim etilishi kerak.

12. **Ikkinchi bosqich** – tuman va shahar miqyosida **1–10-fevral** kunlari oralig‘ida o‘tkaziladi. Hay’at a’zolari tomonidan har bir nominatsiya bo‘yicha 3 ta o‘ringa loyiq ko‘rilgan eng yaxshi ijod namunalari tanlab olinib, tashkilotchilar tomonidan munosib rag‘batlantiriladi. Tuman bosqichida faqatgina 1-o‘rinni egallagan g‘olibning ijodiy ishlari viloyat bosqichiga taqdim etiladi.

Tanlov hay'ati qarori (bayonnoma) asosida tanlab olingan ijodiy ishlar bilan birga tanlovning viloyat bosqichi tashkiliy qo'mitasiga har yili 10-fevraldan kechiktirilmagan holda taqdim etilishi kerak.

13. Uchinchi bosqich – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida **10–20-fevral** kunlari oralig'ida o'tkaziladi. Hay'at a'zolari tomonidan har bir nominatsiya bo'yicha 3 ta o'ringa loyiq ko'rilgan eng yaxshi ijod namunalari tanlab olinib, tashkilotchilar tomonidan munosib rag'batlantiriladi. Mazkur bosqichda 1-o'rinni egallagan ishtirokchilar keyingi – respublika bosqichda ishtirok etadi.

Tanlov hay'ati qarori (bayonnoma) asosida tanlab olingan ijodiy ishlar bilan birga tanlovning respublika bosqichi bosqichi tashkiliy qo'mitasiga har yili 20-fevraldan kechiktirilmagan holda taqdim etilishi kerak.

14. To'rtinchi bosqich – respublika miqyosida **20–28-fevral** kunlari oralig'ida o'tkaziladi. Bunda viloyatlardan taqdim etilgan ijod namunalari orasidan **3 ta** nominatsiya bo'yicha g'olib va sovrindorlar aniqlanadi.

Tanlovning respublika bosqichni o'tkazish vaqti va joyi O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

3-bob. Tanlovga taqdim etilayotgan ijod namunalariga qo'yiladigan umumiy talablar

15. Tanlovda ishtirok etuvchilar soni cheklanmagan bo'lib, ishtirokchi har bir nominatsiya bo'yicha faqat bitta ijod namunasini taqdim etishi mumkin.

16. Ishtirokchilar tomonidan taqdim qilingan ijodiy ishlar Tanlov mavzusiga mos bo'lishi, mantiqiy yaxlit, hayotiy misollar bilan boyitilgan bo'lishi talab etiladi.

17. Ijodiy ishlar o'quvchilar tomonidan mustaqil yaratilib, quyidagi ma'lumotlar ilova qilinishi kerak:

- Ishning nomi.
- Muallifning ism-familiyasi.
- Ishtirokchining pochta manzili: indeks, viloyat, tuman, shahar, ko'cha, uy.

- O'quv muassasasining pochta manzili: indeks, viloyat, shahar, ko'cha, uy.
- Ijodiy ish topshirilgan sana (yil, oy)
- Ishtirokchining ta'lim muassasasidagi rahbari: Familiyasi, ismi va otasining ismi hamda telefon raqami.

18. Tanlovda rasmlar istalgan materialda (vatman, karton, xolst va h.k.z) turli tasviriy vositalar (akvarel, tush, flomaster, guash, rangli qalamlar) shaklida bajarilishi mumkin.

19. Tanlovga taqdim etilayotgan rasmlar A 4 (210 x 290) formatdan kichik bo'lmagan, A 3 (420x580) formatdan katta bo'lmagan o'lchamda bo'lishi kerak.

20. Insholar o'zbek, qoraqalpoq, rus yoki ta'lim tashkil etilgan boshqa tillarda, rasmiy yozma uslub talablariga muvofiq, 12 varaqli daftarga, ko'k siyohli oddiy sharikli ruchkada yozilishi;

21. Videorolik yoki reelslar MP4 formatda, davomiyligi 1,5 daqiqadan oshmagan bo'lishi lozim.

Plagiatga yo'l qo'yilmaydi.

4-bob. Tanlov hay'ati a'zolarining vazifalari va baholash mezonlari

22. Tanlov hay'ati tarkibi tanlov tashkilotchisi va hamkorlari tomonidan tuzilib, tuman (shahar) va viloyatlarda 5 kishidan, respublikada 7 kishidan iborat bo'ladi.

23. Tanlov hay'ati ijodiy ishlarni baholashda konsultativ xizmatlardan foydalanish maqsadida tegishli yo'nalishlar bo'yicha ekspertlarni jalb etishi mumkin.

24. Tanlov hay'ati tomonidan o'quvchilarning ijodiy ishlari quyidagi baholash mezonlari bo'yicha amalga oshiriladi va g'oliblar aniqlanadi.

Har bir ko'rsatkich 10 ballik tizim asosida baholanadi:

- tanlov g'oyasining aks ettirilishi va o'ziga xos syujet;
- ijodiy ishning badiiyligi va dizayni;

soliq tushunchasi haqida umumiy tasavvur ochib berilishi;

ishtirokchi o'zining ijodiy ishini taqdimot (gapirib berishi) qilishi.

5-bob. Tanlov tashkilotchisining vazifalari va majburiyatlari

25. Tanlov tashkilotchisiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- Tanlov o'tkazishning informatsion-targ'ibot kompaniyasini tashkil qilish;
- Tanlovning tuman (shahar), Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi hay'at a'zolari tarkibini tasdiqlash;
- Ijodiy ishlarni taqdim etish va Tanlovni o'tkazish muddatlarini belgilash;
- Tanlov ishtirokchilarining eng yaxshi ijod namunalari ko'rgazmasini tashkil etish va o'tkazish.

26. Tanlov tashkilotchisining majburiyatlari:

- Tanlovning barcha ishtirokchilariga zarur sharoitlarni yaratish;
- Tanlov g'oliblarini rahbatlantirish.

6-bob. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

27. Birinchi bosqich g'olilari maktab rahbariyati tomonidan belgilangan, ikkinchi va uchinchi bosqich g'oliblari tashkilotchilarning diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

28. To'rtinchi bosqich g'oliblari Soliq qo'mitasining diplom va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Shuningdek, tanlovning yakuniy – respublika bosqichida rag'batlantiruvchi mukofotlar berilishi, bunda sovrindorlarni taqdirlash uchun hamkor tashkilotlarning taklif va tashabbuslari inobatga olinishi mumkin.

29. Tanlov yakuniga ko'ra eng yaxshi ishlar ko'rgazmasi taqdimoti o'tkaziladi. G'oliblar o'z ijod namunalari bilan jamiyatda soliq savodxonligini

oshirish maqsadida bolalar uchun mo'ljallangan turli **matbuot va internet nashrlari, televideniye** orqali chiqishlar qilishlari mumkin.

7-bob. Tanlov ishtirokchilarining shikoyatini ko'rib chiqish

30. Ishtirokchilar mazkur Nizom talablarining buzilishi, tanlovni o'tkazish va ijodiy ish natijalarini ko'rib chiqish bo'yicha hay'at a'zolari yoki mas'ullarning harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan tashkiliy qo'mita yoki bevosita tashkilotchiga shikoyat qilishga haqli.

31. Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan shikoyat tashkiliy qo'mita tomonidan mazkur shikoyat kelib tushgan kundan e'tiboran bir ish kuni ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) xolis ekspertlar xulosasini olish talab etilganda esa uch ish kunigacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

32. Tashkiliy qo'mita shikoyatni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qilishga haqli:

- e'tiroz asossiz bo'lsa, shikoyatni qanoatlantirishni rad etish;

- e'tiroz asosli bo'lsa, hay'at a'zolari zimmasiga shikoyat mohiyati bo'yicha tanlov natijalari yuzasidan qabul qilingan qarorni qayta ko'rib chiqish majburiyatini yuklash.

Soliq qo‘mitasi,
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,
Yoshlar ishlari agentligining
2026-yil 16 -yanvardagi
2026-01 / 4 q/q / 01-04/01 -son qaroriga
2-ILOVA

**“Soliq bilimlari – yosh avlodga” mavzusidagi ijodiy ishlar ko‘rik-tanlovi
tuman (shahar) bosqichi g‘oliblarini aniqlovchi
Hay’at a’zolari namunaviy tarkibi**

№	Familiyasi va ismi	Ish joyi va lavozimi
1.		Soliq inspeksiyasi boshlig‘i, Hay’at Raisi
2.		Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
3.		Yoshlar ishlari agentligi hududiy bo‘linmasi boshlig‘i
4.		Soliq inspeksiyasining mahallalarda ishni tashkil etish sho‘basi boshlig‘i
5.		“Barkamol avlod” bolalar markazlari mutaxassislari

Soliq qo‘mitasi,
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,
Yoshlar ishlari agentligining
2026-yil 16 -yanvardagi
2026-01 / 4 q/9 / 01-07/01 -son qaroriga
3-ILOVA

**“Soliq bilimlari – yosh avlodga” mavzusidagi ijodiy ishlar ko‘rik-tanlovi
Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi
g‘oliblarini aniqlovchi
Hay’at a’zolari namunaviy tarkibi**

№	Familiyasi va ismi	Ish joyi va lavozimi
1.		Soliq boshqarmasi boshlig‘i, Hay’at Raisi
2.		Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i
3.		Yoshlar ishlari agentligi hududiy boshqarmasi boshlig‘i
4.		Soliq boshqarmasi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (sho‘basi) boshlig‘i
5.		Soliq boshqarmasi Jamoatchilik bilan aloqalar sho‘basi boshlig‘i

Soliq qo‘mitasi,
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,
Yoshlar ishlari agentligining
2026-yil 16 -yanvardagi
2026-01 / 4 q/q / 01-04/01-sonli qaroriga
4-ILOVA

**“Soliq bilimlari – yosh avlodga” mavzusidagi ijodiy ishlar ko‘rik-tanlovi
respublika bosqichi g‘oliblarini aniqlovchi
Hay’at a’zolari tarkibi**

№	Familiyasi va ismi	Ish joyi va lavozimi
1.	M.Mirzayev	Soliq qo‘mitasi Raisining birinchi o‘rinbosari, Hay’at Raisi
2.	F.Boqiyev	Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari
3.	A.Muminov	Yoshlar ishlari agentligi direktorining o‘rinbosari
4.	A.Umirzaqov	Soliq solish metodologiyasi boshqarmasi boshlig‘i
5.	T.To‘rayev	Soliq qo‘mitasi Jamoatchilik bilan aloqalar boshqarmasi boshlig‘i – Raisning matbuot kotibi
6.	D.Sobirova	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Axborot xizmati rahbari
7.	N.Abduqodirov	Yoshlar ishlari agentligi Axborot xizmati rahbari